

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
To‘qimachilik korxonalari chiqindilari asosida neft quduqlarini burg‘ilash eritmasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - To‘qimachilik chiqindilari namunalarini tahlil qilinib, ularning tarkibidagi organik va noorganik komponentlarni aniqlash, ekologik xavfsizlik darajasini baholash amalga oshiriladi; - Chiqindilardan foydalanib, burg‘ilash eritmasining asosiy komponentlari sifatida ishlatiladigan modda yoki birikmalarni ajratib olish, ularni fizik-kimyoviy xossalari bo‘yicha baholash hamda eritmaga moslash uchun zarur bo‘lgan texnologik jarayonlar ishlab chiqiladi; - To‘qimachilik korxonalarining tolali chiqindilari asosida neft quduqlarini burg‘ilash uchun texnik jihatdan sifatli bo‘lgan polianion sellyuloza (PAS) ning yangi turlari va markalari ishlab chiqiladi; - Tayyorlangan eritma namunalarini reologik, termik, kimyoviy va biologik barqarorlik bo‘yicha laboratoriya sharoitida tekshirish, uni amaldagi GOST yoki boshqa xalqaro standartlar bilan solishtiriladi; - Yangi eritmaning atrof-muhitga ta’siri, chiqindilarning qayta ishlanishi natijasida hosil bo‘lgan qo‘shimcha ekologik foyda hamda ishlab chiqarish tannarxi asosida iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqotlar natijalari O‘zbekneftgaz AJ tasarrufidagi korxonalarda sinovlardan o‘tkaziladi ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida O‘zbekneftgaz AJ xulosasi olinadi. Natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalar asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar O‘zbekneftgaz AJ ning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.